

## LIDERLIK VA KORPORATIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIKLIK

**Bovaqulova Mavjuda Rahimberdievna**

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,  
MBA Liderlik (Leadership) OL-1uz-25S-e gurux  
magistr tinglovchisi,*

**Annotatsiya:** *Liderlik va korporativ madaniyat o‘rtasidagi munosabat zamonaviy tashkilotlarda samaradorlik va barqaror rivojlanishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Liderning motivatsion ta’siri va korporativ ijtimoiy mas’uliyatni amalga oshirish orqali tashkilotlarda ish muhiti, xodimlarning intilishi va korporativ madaniyat shakllanishi mustahkamlanadi. O‘zbekiston va xorijiy tajribalarni tahlil qilish KIM va liderlikning birgalikda samarali korporativ muhitni yaratishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Liderlik, korporativ madaniyat, korporativ ijtimoiy mas’uliyat, samaradorlik, motivatsiya.*

**Abstract:** *The relationship between leadership and corporate culture is crucial for organizational efficiency and sustainable development. Leadership influence combined with the implementation of Corporate Social Responsibility (CSR) strengthens the work environment, employee engagement, and corporate culture. Analysis of both Uzbekistan and international practices demonstrates the significance of CSR and leadership in creating an effective corporate environment.*

**Keywords:** *leadership, corporate culture, corporate social responsibility, efficiency, motivation*

### **Kirish (Introduction)**

Liderlik va korporativ madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy tashkilotlar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, tashkilot samaradorligi, xodimlar motivatsiyasi va barqaror rivojlanishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Korporativ madaniyat — bu tashkilotning asosiy qiymatlari, qadriyatlari va normalarini o‘z ichiga olgan umumiy ish muhiti bo‘lib, xodimlar faoliyatining samaradorligini va tashkilot ichki jarayonlarining muvofiqligini ta’minlaydi. Liderlik va korporativ madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik ayniqsa Liderning samarali amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi. Lider korporativ qadriyatlarni ilgari suradi, xodimlarni rag‘batlantirish va tashkilotning strategik maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish orqali korporativ madaniyatni shakllantiradi.

Usullar (Methods). Bu maqolada O‘zbekiston va xorijiy misollar tahlil qilindi. O‘zbekistonda davlat va xususiy sektorda KIMning tadbiq etilishi va liderlik roli, shuningdek korporativ madaniyatni rivojlantirish yo‘nalishlari o‘rganildi. Xorijiy tajribalar (Coca-Cola, Microsoft, Tesla) tadqiq qilindi, ularda liderlik va KIMning barqaror korporativ muhit yaratishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Maqola analitik va muqonosaviy tahlil usulida tayyorlandi.

Natijalar (Results). Ma’lumki, Yirik kompaniyalar, masalan, “Artel”, “UzAuto Motors”, korporativ ijtimoiy mas’uliyatni joriy etish orqali xodimlar motivatsiyasi va ish samaradorligini oshirmoqda. Liderlar xodimlarni ilhomlantirish va korporativ qadriyatlarini shakllantirishda faol rol o‘ynaydi. Hali ham an’anaviy davlat korxonalarida Liderning to‘liq tatbiqi cheklangan va korporativ madaniyat kam rivojlangan.

#### Muxokama (Discussion)

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki masalan; Coca-Cola suvni tejash va chiqindilarni qayta ishlash dasturlari orqali ekologik mas’uliyatni amalga oshiradi. Microsoft ta’lim va raqamli savodxonlik loyihalari bilan ijtimoiy mas’uliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Tesla ekologik toza texnologiyalar va uglerod sarfini kamaytirish dasturlari orqali korporativ madaniyat va barqarorlikni rivojlantirmoqda. Bu misollar liderlik va KIMning birgalikda korporativ madaniyatni shakllantirish va tashkilotning strategik maqsadlariga erishishda muhimligini ko‘rsatadi.

XX-asrning oxiriga kelib kompaniyalar tomonidan ijtimoiy mas’uliyatni qabul qilish korporativ ijtimoiy mas’uliyatning paydo bo‘lishiga olib keldi. "Korporativ ijtimoiy mas’uliyat" (Lider) atamasi odatda tashkilotlarning jamiyatga nisbatan axloqiy xatti-harakati sifatida tushuniladi.

Lider – bu:

birinchidan, tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan ijtimoiy majburiyatlarni bajarishi va tegishli majburiy xarajatlarni qat’iy o‘z zimmasiga olishga tayyorligi;

ikkinchidan, tashkilotning ijtimoiy ehtiyojlar uchun soliq, mehnat, atrof-muhit va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan me’yorlardan tashqari ixtiyoriy ravishda xarajatlarni amalga oshirishga tayyorligidir. Bunda kompaniya qonuniy talablarga emas, balki ma’naviy va axloqiy normalarga asoslanadi.

Demak, korporativ ijtimoiy mas’uliyat (KIM) - bu kompaniyalar ixtiyoriy ravishda jamiyat va atrof-muhit oldidagi qonun talablaridan tashqari majburiyatlarni o‘z zimmalariga oladigan tushunchadir. Zamonaviy dunyoda KIM biznesni strategik boshqarishning ajralmas qismiga aylanib, obro‘-e’tiborni mustahkamlash, mijozlar va xodimlarning sodiqligini oshirish, shuningdek, jamiyatning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Lider quyidagilarni nazarda tutadi:

- biznes yuritish uchun barcha qonuniy talablarga rioya qilgan holda sifati bo'yicha barcha majburiy standartlarga javob beradigan yetarli miqdorda mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish;

- xodimlarning muayyan ijtimoiy kafolatlar bilan xavfsiz mehnat qilish huquqini hurmat qilish, shu jumladan yangi ish o'rinlarini yaratish;

- xodimlarning bilim va malakasini oshirishga ko'maklashish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va qayta tiklanmaydigan resurslarni tejash;

- madaniy merosni muhofaza qilish;

- tashkilot joylashgan hududni rivojlantirishda hokimiyat organlarining sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, mahalliy ijtimoiy institutlarga yordam berish;

- kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, yetim bolalar va yolg'iz keksalarga yordam ko'rsatish;

- biznes yuritishning umume'tirof etilgan qonunchilik va axloqiy me'yorlariga rioya qilish.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash joizki, korporativ ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasi tashkilot rahbari foyda uchun ishlashga, xodimlarga, mijozlarga va sheriklarga g'amxo'rlik qilish hamda atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan faoliyatga teng e'tibor berishi lozimligiga asoslanadi.

Kompaniyalarning Lideri barcha rivojlangan mamlakatlarda korporativ boshqaruvning majburiy komponenti hisoblanadi. Bugungi kunda bizda asosan yirik tashkilotlar ijtimoiy mas'uliyat tushunchasini asta-sekin o'z faoliyatiga kiritib bormoqda.

Lider atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xayriya loyihalarida ishtirok etish, axloqiy me'yorlarni saqlash va mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirish kabi keng sohalarni qamrab oladi. Liderning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ixtiyoriylik va tashabbuskorlik;

- oshkoralik va jamiyat oldida javobgarlik;

- uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari;

- turli manfaatdor tomonlarning manfaatlariga muvofiqligi.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

*Ekologik javobgarlik* - ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, zararli moddalar chiqindilarini kamaytirish, chiqindilarni utilizasiya qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish.

*Ijtimoiy mas'uliyat* - qulay mehnat sharoitlarini yaratish, xodimlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash, korporativ madaniyatni rivojlantirish.

*Iqtisodiy mas’uliyat* - halol biznes yuritish, iste’molchilar huquqlarini hurmat qilish, mahalliy yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

*Xayriya faoliyati* - ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, ta’lim, sog‘liqni saqlash va sportni qo‘llab-quvvatlash.

Liderni dasturlarini faol amalga oshiruvchi kompaniyalar bir qator muhim ustunliklarga ega bo‘ladilar:

- obro‘ va imijni yaxshilash;
- mijozlar va hamkorlar ishonchini oshirish;
- xodimlarning motivasiyasi va samaradorligini oshirish;
- huquqiy va moliyaviy risklarni kamaytirish;
- investitsion jozibadorlikni oshirish.

Muvaffaqiyatli KIM dasturlariga misollar:

Ko‘pgina xalqaro kompaniyalar o‘zlarining strategiyalariga Liderni muvaffaqiyatli integratsiya qilmoqdalar. Masalan:

Coca-Cola kompaniyasi suvni tejash va chiqindilarni qayta ishlash dasturlarini faol amalga oshiradi.

Microsoft kompaniyasi ta’lim loyihalari va aholining raqamli savodxonligini oshirishga sarmoya kiritadi.

Tesla kompaniyasi ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqadi va uglerod sarfini kamaytirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Korporativ ijtimoiy mas’uliyat zamonaviy biznesning muhim elementi bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishiga va hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Lider tamoyillarini amalga oshirish kompaniyalarga nafaqat raqobatbardoshligini oshirish, balki global ijtimoiy va ekologik jarayonlarga hissa qo‘shish imkonini beradi. Shunday qilib, Lider muvaffaqiyatli va mas’uliyatli biznesning ajralmas qismiga aylangan.

**Xulosa:** Liderlik va korporativ madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik KIMning samarali amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston va xorijiy tajribalar KIM va liderlikning korporativ qadriyatlarni shakllantirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda xususiyl sektorida bu mexanizmlar qo‘llanila boshlandi, davlat tashkilotlarida esa ularni keng miqyosda tatbiq etish zarur. Xorijiy tajribalar esa korporativ madaniyatni rivojlantirishda liderlik integratsiyasining samaradorligini ko‘rsatadi.

---

### **References**

1. Свинарева О.В., Хамидова И.В. Проф этика и служебный этикет: учебное пособие / О.В. Свинарева, И.В. Хамидова. Рязань: Рязанский филиал Московского университета МВД России имени В.Я. Кикотя, 2022. – 110 с.
4. Suyunov D.X., E.A. Xoshimov, Sh.A. Xusainov Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. 2018. 220 bet.
5. Qodirov T.U. Inson resurslarini boshqarish. Darslik.// T.U. Qodirov. – T.: Impress media, 2025. -566 bet.
6. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg‘or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>. 2025, fevral.
7. Suyunov D.X., Qodirov T.U., Umarova R.Z. Boshqaruv etikasi va korporativ madaniyat. Darslik: T.: 2025, 475 bet.
8. Suyunov D.X., E.A. Xoshimov, Sh.A. Xusainov Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. 2018. 220 bet.
9. Suyunov D.X., S.E. Elmirzayev Korporativ boshqaruv. Darslik–Toshkent 2022. 450 bet.
10. Suyunov D.X., A.T. Kenjabayev, A. Ro‘ziyev Elektron tijorat. 2023. 450 bet.